

**O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi
majlisining 28-son bayonnomasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligiga yuklatilgan topshiriqlar yuzasidan Samarqand davlat universiteti
Urgut filialining ushbu bayonnomaning 2.1-2.3 bandlari ijrosi yuzasidan**

M A ’ L U M O T I

“Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” ni Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish, oylik davomida asosiy e’tiborni tashkilot faoliyati va tatbiq etilayotgan yangiliklardan aholini xabardor qilishga, xodimlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borishga hamda ularning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratish xamda o‘tkazilayotgan tadbirlar orqali “Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filialida xodimlari, professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlar o‘rtasida muntazam ravishda targ‘ibot-tashviqot ko‘rinishdagi profilaktik tadbirlar tashkil etib kelinmoqda.

Jumladan joriy yilning 02 dekabr kuni filialda **“Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”** mavzusida davra suxbati bo‘lib o‘tdi. Tadbirda professor o‘qituvchilar, ishchi xodimlar xamda talaba yoshlarga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, sud huquq tizimidagi islohotlar bilan tanishtirish, mamalakatimizda korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi sabab va shart sharoitlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilish korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish tizimini samarali yo‘lga qo‘yish barchamizning burchimiz ekanligini korrupsiya nima? Ilmiy adabiyotlarda unga quyidagicha ta’rif berilishi: “Korrupsiya—shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan kelib chiqib shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”. Korrupsiya atamasi lotincha “korruptio” so‘zidan olingan bo‘lib, pora berib sotib olish, buzilish, ishdan chiqish, axloqiy (ma’naviy) buzilish degan ma’nolarni anglatishi, odatda mansabdor shaxs tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan, shuningdek, bu bilan bog‘liq rasmiy nufuz maqomidan, imkoniyatlar va aloqalaridan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini, jamiyatda korrupsiya oddiy xalq vakillarining yuqori amaldorlarga yoxud davlat amaldorlarining o‘zaro bir birlariga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqishini, ushbu salbiy holatning har qanday ko‘rinishi jamiyatni halokat yoqasiga olib borishi muqarrarligini, korrupsiyaning tarixi antik davrlarga borib taqalishi, Qadimgi YUnoniston davlatida oddiy xalq vakillari oqsoqollarga va turli darajadagi amaldorlarga sovg‘a-salomlar berishganligini, xuddi shunday holatlar qadimgi Misrda ham kuzatilganligi: bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy a’yonlarga nisbatan ham o‘zboshimchalik va zo‘ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o‘ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelganligi, xozirgi kunda filialiiz miqyosida Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi doirasida bo‘lim tomonidan bir qancha tadbirlar o‘tkazilayotganligi va ushbu tadbirlar orqali talabalar korrupsiya qanday illat ekanligi to‘g‘risida tushunchalarga ega bo‘layotganligi va filialda ushbu illatni batomom yo‘q qilishda birgalikda harakat qilishimiz kerakligi to‘g‘risida jamiyatda korrupsiya oddiy xalq vakillarining yuqori

amaldorlarga yoxud davlat amaldorlarining o'zaro bir-birlariga bo'lgan munosabatidan kelib chiqishi, korrupsiyaning kelib chiqish ildizi qaerda? Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli oliy ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilganligi, o'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilganligi, xatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilganligi, hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona echim yo'q ekanligi xaqida gapirib o'tildi. Tadbir so'ngida yana bir bor “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va prinsiplarini belgilashda bunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash masalasi qat'iy hisobga olinganligi, Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qolishi, bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylashi, ular iymon-e'tiqodga ishonmasligi, ayni paytda bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani ishonib bo'lmasligi xaqida tushuntirish ishlari olib borildi.

Samarqand davlat universiteti Urgut filialida doimiy ravishda professor o'qituvchilar, ishchi xodimlar xamda talaba yoshlarga sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”** hamda **“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”**gi qonunlarning mazmun va mohiyatini xodimlarga tushunturub kelinmoqda.

O'tkazilgan tadbirdan fotolavxalar





Korrupsiyaga qarshi kurashish

“Komplayens nazorat” tizimini

boshqarish

bo‘limi

bosh

mutaxassisi



F.Umirov